

Turg'unov Axror Yodgor o'g'li,

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy
instituti tayanch doktoranti

TAYANCH MAKTABLARDA KASBIY RIVOJLANISH KUNLARI TASHKIL ETISHING MAZMUNI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

UO'K: 373.6

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_9](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_8_9)

TURG'UNOV A.YO-O'. TAYANCH MAKTABLARDA KASBIY RIVOJLANISH KUNLARI TASHKIL ETISHING MAZMUNI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borilshi sifatli ta'lim jarayonini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tayanch maktablarda tashkil etiladigan kasbiy rivojlanish kunlari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini yanada mustahkamlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni egallash imkonini beradi. Ushbu maqolada tayanch maktablarda kasbiy rivojlanish kunlarining mazmun-mohiyati hamda ularni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari tahlil qilinadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasbiy rivojlanish kunlari, tayanch maktablar, pedagog kadrlar, ta'lim tizimi, huquqiy asos.

TURGUNOV A.Ё-У. СОДЕРЖАНИЕ И НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДНЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В БАЗОВЫХ ШКОЛАХ

Регулярное повышение квалификации педагогических кадров системы образования имеет важное значение для обеспечения качественного образовательного процесса. Особенно, организованные в базовых школах дни профессионального развития позволяют педагогам ещё больше укреплять профессиональные компетенции, овладевать современными педагогическими технологиями и методами. В этой статье анализируются содержание и сущность дней профессионального развития в базовых школах, а также нормативно-правовая база их организации.

Ключевые слова и понятия: дни профессионального развития, базовые школы, педагогические кадры, система образования, правовая основа.

TURGUNOV A.YE. CONTENT AND REGULATORY BASIS FOR ORGANIZING PROFESSIONAL DEVELOPMENT DAYS IN BASIC SCHOOLS

Regular advanced training of teaching staff in the education system is important for ensuring a high-quality educational process. In particular, professional development days organized in basic schools allow teachers to further strengthen their professional competencies and master modern pedagogical technologies and methods. This article analyzes the content and essence of professional development days in basic schools, as well as the regulatory framework for their organization.

Key words and concepts: professional development days, basic schools, teaching staff, education system, legal framework.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Bu jarayon o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini yangilab borish, pedagogik mahoratlarini oshirish hamda zamonaviy ta'lim standartlari va talablariga moslashish imkonini yaratadi. Ayniqsa, tayanch maktablarda tashkil etiladigan kasbiy rivojlanish kunlari uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanib, pedagoglarning professional malakasini oshirishda va innovation pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Tayanch maktablarning ta'lim tizimidagi roli nafaqat o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishdan iborat, balki ular maktablararo metodik markaz sifatida pedagoglarning kasbiy o'sishini ta'minlashda markaziy ahamiyatga ega. Mazkur maktablar o'qituvchilarga keng qamrovli metodik materiallar, o'quv qo'llanmalari va amaliy yordam ko'rsatish orqali ularning kasbiy salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlashga va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Kasbiy rivojlanish kunlari doirasida o'qituvchilar yangi o'quv dasturlari va standartlari bilan tanishadilar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni o'rganadilar, shuningdek, o'zaro pedagogik tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu platforma nafaqat bilim va ko'nikmalarni boyitish, balki pedagoglarning professional aloqalarini mustahkamlash, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Shu orqali o'qituvchilar o'z ishiga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirib, ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni tatbiq etishga tayyor bo'ladilar.

Shuningdek, tayanch maktablardagi kasbiy rivojlanish kunlari o'qituvchilarning kasbiy o'sish yo'nalishlarini aniqlashda va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning muntazam o'tkazilishi pedagoglarning malakasini oshirishning uzluksiz jarayonini ta'minlab, ta'lim sifatining uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda pedagogik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Dunyo miqyosida raqobatbardosh ta'limni shakllantirish uchun o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, zamonaviy metodlarni o'zlashtirishi va baholanish tizimlarida faol ishtiroki talab qilinmoqda. Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda ushbu jarayonlarni samarali tashkil etish hamda tartibga solish uchun bir nechta qonunosti va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, ushbu yo'nalish bo'yicha 2024-yil yurtimizda qabul qilingan huquqiy hujjatlar mazmunan bir-birini to'ldiradi va yagona tizimni shakllantirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi¹ Qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilab berilgan bo'lib, ular orasida "ta'limning uzluksizligi va izchilligi", shuningdek, "insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi" kabi tamoyillar alohida o'rin egallaydi. Mazkur prinsiplar zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. "Ta'limning uzluksizligi" deganda, insonning yoshga, kasbga yoki ijtimoiy holatga qarab, har qanday bosqichda ta'lim olish imkoniga ega bo'lishi tushuniladi. Bu holat maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'lim, magistratura, doktorantura, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

"Izchillik" tushunchasi esa ta'lim bosqichlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, o'zaro muvofiqligini anglatadi. Ya'ni har bir keyingi ta'lim bosqichi avvalgisiga tayanuvchi, uni chuqurlashtiruvchi va rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi zarur. Bu esa shaxsning mustahkam bilim asoslariga ega bo'lishini va o'z sohasida raqobatbardosh kadrga aylanishini ta'minlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda gi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni. - <https://lex.uz/docs/-5013007>

Yana bir muhim prinsip — bu “insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi”dir. Bu tamoyil XXI asrda «hayot davomida o’rganish» (lifelong learning) konsepsiyasining asosiy g’oyasi bo’lib, inson har doim o’z bilim va malakalarini rivojlantirishga haqli ekanligini anglatadi. Hozirgi kunda zamonaviy mehnat bozorida bu zaruratga aylangan: texnologiyalarning tez yangilanishi, kasblarning o’zgarishi va yangi sohalarining paydo bo’lishi ta’limni faqat yoshga doir bosqich deb emas, balki “dinamik va doimiy jarayon” sifatida ko’rishga majbur etmoqda.

O’qituvchining kasbiy faoliyati ta’lim samaradorligining asosiy omillaridan biri bo’lib, u bevosita o’quvchilarning o’zlashtirish darajasiga ta’sir qiladi. Turli tadqiqotlar uzluksiz kasbiy rivojlanish va o’qituvchilar samaradorligi o’rtasida ijobiy bog’liqlik mavjudligini tasdiqlagan. Masalan, Yoon va boshqalar¹ tomonidan o’tkazilgan metatahlilda aniqlanishicha, yaxshi loyihalashtirilgan kasbiy rivojlanish dasturlari o’qituvchilarning dars berish amaliyotini ijobiy tomonga o’zgartiradi va bu esa o’z navbatida o’quvchilar o’zlashtirishining yaxshilanishiga olib keladi. Shuningdek, Guskey va Yoon² uzoq muddatli va ish joyida olib boriladigan uzluksiz kasbiy rivojlanish (ya’ni, amaliy faoliyat bilan uzviy bog’langan ta’lim) aynan yangi bilim va ko’nikmalarni dars amaliyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etishda muhim rol o’ynashini ta’kidlaydi.

2018-yilda o’tkazilgan “Xalqaro O’qitish va O’rganish So’rovnomasi (TALIS)”³ tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, dunyo bo’ylab o’qituvchilarga birgalikda ish-

lash, tajriba almashish va hamkorlikda qaror qabul qilish imkoniyati yaratib berilgan muhitlar, ularning o’z kasbini samarali bajarayotganlik hissini kuchaytiradi. Ya’ni, o’qituvchi yolg’iz emasligini, u jamoaning muhim bir bo’lagi ekanini his qilganida, o’z vazifasini ishonch bilan bajaradi. Bunday hamkorlik muhiti nafaqat o’qituvchining ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, balki ularning yangi metodlarni — masalan, loyihalarga asoslangan ta’lim, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo’llash, yoki 21-asr uchun zarur bo’lgan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi yuqori darajadagi ko’nikmalarni o’rgatish borasidagi tayyorgarligini ham kuchaytiradi.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, o’qituvchilar o’zaro fikr almasha oladigan, tajriba orttiradigan va yangilik kiritishga undaydigan muhitda faoliyat yuritsalar, bu bevosita o’quvchilarning yutuqlari va butun ta’lim sifati uchun ijobiy natijalar beradi.

O’qituvchilar zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy eta olishi va bu tajribalarni keng miqyosda qo’llay olishi uchun, eng avvalo, ta’lim tizimi ularning fikrini eshitishi zarur. Ular o’z ishining haqiqiy subyekti bo’lishi, ya’ni qarorlar qabul qilinishida faol ishtirok etishi kerak. Bu esa o’z navbatida, o’qituvchiga zamonaviy treninglar, malaka oshirish dasturlari, doimiy ko’mak va kerakli pedagogik vositalar bilan ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Ta’lim sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar va amaliyotchi ekspertlar hisoblanuvchi Hargreaves va Fullan⁴ tomonidan ilgari surilgan hamkorlikka asoslangan va kasbdoshlararo o’rganish modellari o’qituvchilar o’rtasida o’zaro o’rganish, tajriba almashish va doimiy rivojlanish madaniyatini shakllantirish orqali barqaror natijalarni ta’minlaydi. Bu fikrlarga biz ham qo’shilgan holda o’qituvchilar nafaqat o’z maktabida, balki boshqa maktablar va jamoalar bilan hamkorlik qilib, o’zlarining ilg’or tajribalarini keng doirada tatbiq etish imkoniyatiga ega bo’lishlari ta’lim sifati oshirishda hal

¹ Yoon, K. S., Duncan, T., Lee, S. W., Scarloss, B., & Shapley, K. L. (2007). Reviewing the evidence on how teacher professional development affects student achievement. Issues & Answers Report, REL 2007-No. 033. Washington, DC: U.S. Department of Education, Institute of Education Sciences, National Center for Education Evaluation and Regional Assistance, Regional Educational Laboratory Southwest.

² Guskey, T. R., & Yoon, K. S. (2009). What works in professional development. Phi Delta Kappan, 90(7), 495–500.

³ ECD (2020). TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. TALIS, OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/19cf08df-en>.

⁴ Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. New York, NY: Teachers College Press.

qiluvchi omillardan biriga aylanadi deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning maqsadi tayanch maktablarda kasbiy rivojlanish kunini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish va tizimni rivojlantirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida tayanch maktablarida o'tkaziladigan kasbiy rivojlanish kunlari hamda ushbu jarayonlarni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan.

Tadqiqotning predmetini tayanch maktablarda kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishning mazmuni va huquqiy-me'yoriy asoslari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari:

1. Tahliliy usul – kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari (O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va hukumat qarorlari) tahlil qilindi.

2. Adabiy manbalar tahlili va qiyosiy tahlil – xalqaro (TALIS 2018, Yoon, Guskey, Hargreaves va boshqalar) va mahalliy adabiyotlar asosida kasbiy rivojlanish samaradorligi solishtirildi.

3. Empirik kuzatuv va amaliy tahlil – tayanch maktablarda o'tkazilayotgan kasbiy rivojlanish kuni tadbirlarini tashkil etishdagi real muammolar (infratuzilma, barqarorlik, monitoring) kuzatildi va tahlil qilindi.

4. Statistik tahlil – 2024–2025 o'quv yilida o'tkazilgan kasbiy rivojlanish kuni tadbirlarida ishtirok etgan o'qituvchilar soni va yo'nalishlari bo'yicha raqamli ma'lumotlar umumlashtirildi.

5. Tavsiyaviy-metodik yondashuv – amaliy tavsiyalar (onlayn platformalar, monitoring tizimi, rag'batlantirish mexanizmlari) ishlab chiqildi.

Tahlil va metodologiya.

So'ngi yillarda yurtimizda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishlari hamda o'z malaka va ko'nikmalarini oshirishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek ushbu sohani tartibga sol-

ish uchun huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan bo'lib so'ngi yillarda bir nechta qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹gi qarori ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning navbatdagi muhim qadami bo'ldi. Ushbu qaror orqali o'qituvchilar, tarbiyachilar, maktab va bog'chalar rahbarlari, metodistlar kabi ta'lim tizimidagi barcha xodimlar uchun yagona va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish belgilab qo'yildi.

Qaror bilan birinchi marta ta'lim tizimida "**Kasbiy rivojlanish kuni**" (haftasiga bir kun) va "**Kasbiy rivojlanish soati**" joriy etilishi belgilandi. Bu orqali pedagoglar doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini yangilab borish, ilg'or tajriba va zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muhimi shundaki, bu yondashuv endi o'qituvchining besh yilda bir marta majburiy malaka oshirish kursida qatnashish bilan cheklanmasligini, aksincha haftama-hafta, oyma-oy uzluksiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Shuningdek, qaror asosida tayanch maktablar tanlab olinib, ular asosida hududiy metodik xizmatlar faoliyatini tashkil etish, har bir hududda trener-o'qituvchilar zaxirasini shakllantirish va tajriba almashishga xizmat qiladigan tizim yaratish vazifasi yuklatildi. Bu orqali ustoz-shogirdlik, mentorlik, metodik yordam va bir-biridan o'rganish muhiti barpo etilmoqda. O'qituvchilarning yillik faoliyati esa endilikda monitoring orqali baholanadi va kasbiy yutuqlari alohida e'tirof etiladi.

Ushbu qaror asosida belgilangan vazifalarni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2024-yil 20-dekabrda 867-sonli qarori bilan "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkil-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-231-son Qarori. - <https://lex.uz/ru/docs/-6981085>

otlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"¹ gi nizom tasdiqlandi. Nizomda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun qanday shakllar mavjudligi aniq ko'rsatilgan: seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, ochiq darslar, vebinarlar, metodik treninglar va master-klasslar. Eng muhimi, har bir pedagog endi o'zining "individual kasbiy rivojlanish dasturi" ni tuzadi va o'zi belgilagan yo'nalishlar bo'yicha yil davomida izchil ishlaydi.

Yangi tizimda natijadorlik ham e'tibordan chetda qolmagan:

- pedagogning yillik portfeli yuritiladi,
- reyting tizimi orqali kasbiy yutuqlari baholanadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 246-sonli buyrug'i asos bo'lib xizmat qiladi. Bu hujjat orqali "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari barcha maktablarni qamrab olgan holda to'rt bosqich asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, umumiy hisobda 458 229 nafar fan o'qituvchilarini qamrab olish ko'zda tutilgan. Bosqichma-bosqichlik prinsipi asosida tashkil etilgan bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari va joylardagi mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kungacha ikki bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Jumladan, birinchi bosqich 2024-yil 2-oktabrdan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 27-sentabrdagi 317-son buyrug'i asosida matematika, informatika, fizika, kimyo, biologiya va geografiya fanlari o'qituvchilari uchun joriy etildi. Ikkinchi bosqich esa 2025-yil 31-yanvardan boshlab, vazirlikning 34-son buyrug'i asosida ingliz tili, va 2025-yil 15-fevraldan boshlab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun amalga oshirildi.

Tegishli statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024–2025 o'quv yili davomida bu tadbirlarga jami 276 664 nafar fan o'qituvchilari jalb etilgan

bo'lib, ularning tarkibida 47 651 nafar ingliz tili, 117 118 nafar boshlang'ich ta'lim, 54 202 nafar aniq fanlar va 57 693 nafar tabiiy fanlar o'qituvchilari mavjud. Bu ko'rsatkichlar maktab tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan keng qamrovli va tizimli yondashuvni ifodalaydi.

Tadbirlar haftaning ma'lum kunlarida, tayanch maktablar negizida tashkil etilib, ushbu kunlar o'qituvchilarning faqat kasbiy rivojlanish faoliyatiga bag'ishlanadi. Ularning dars mashg'ulotlari yoki boshqa maktab tadbirlariga jalb etilishi qat'yan man etilgan. Bunday yondashuv, o'qituvchiga to'liq diqqatni kasbiy o'sish va metodik tajriba almashishga qaratishga imkon yaratadi.

Kasbiy rivojlanish kuni mashg'ulotlari 36 soatlik modul asosida olib boriladi va uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: 1-soat nazariya, 2-soat amaliyot va 3-soat tajriba almashish. Bu format o'qituvchilarda tahliliy fikrlash, innovatsion uslublarni amalda qo'llash va kasbdoshlar bilan muloqotni kuchaytirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, tadbirlarda ilg'or pedagoglar va mentor-o'qituvchilar ishtiroki muhim o'rin tutadi. Ular o'z tajribalari, dars ishlanmalari va metodik yondashuvlari orqali boshqa o'qituvchilar uchun namunaviy model bo'lib xizmat qilmoqda. Mentor-o'qituvchilarning faoliyati, ularning asosiy ish joyi hisoblangan ta'lim muassasasi direktor jamg'armasi hisobidan har oylik maoshining 20 foizi miqdorida ustama bilan rag'batlantirilmoqda. Bu tizim ularning professional faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadbirlar pedagoglar uchun raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi, differensial ta'lim, hamda PISA-STEM kabi ilg'or yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning individual kasbiy salohiyatini, balki maktab ta'limining sifat ko'rsatkichlarini ham sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 dekabrdagi 867-son qarori. - <https://lex.uz/docs/-7271575>

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllanayotgan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi ta'lim sohasida sifatli o'zgarishlarga zamin yaratmoqda. Endilikda pedagoglar o'z kasbiy faoliyatini rejali, maqsadli va individual yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu tizim o'qituvchini doimiy o'rganuvchi, yangilikka ochiq, o'z ustida ishlovchi, innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llay oluvchi mas'uliyatli mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Amaldagi islohotlar esa o'z navbatida ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim darajasi va umuman jamiyatda o'qituvchi kasbining ijtimoiy nufuzini oshirishga yo'naltirilgan barqaror tizimning tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Ammo olib borilgan kuzatishlar hamda tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tayanch maktablariidagi kasbiy rivojlanish kunlari jarayonlarini tashkil etishda bir qator tashkiliy hamda ilmiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan ushbu jarayonlar uchun o'quv-reja dasturlarini ishlab chiqishda o'qituvchilarning real kasbiy ehtiyojlari inobatga olinishi lozim.

Ikkinchidan o'tkazilayotgan kasbiy rivojlanish kuni tadbirlari sifat samaradorligi monitoring olib borilmaydi. Bu o'z navbatida ushbu jarayonlarni samaradorligini baholashni imkonsiz ekanligini anglatadi.

Uchinchidan ushbu tadbirlarni tashkil qilishda tayanch maktablari hisoblanuvchi direktorlar tomonidan yetarlicha shart-sharoitlar (multimedia vositalari, internet, o'quv xonalari) bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda.

To'rtinchidan yetakchi o'qituvchilar doimiy emas, ya'ni kasbiy rivojlanish kuni tadbirlariga maktablardan har safar har xil o'qituvchilar yuborilishi holatlari mavjud.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar, statistik ma'lumotlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahliliga asosanib, quyidagi **xulosalarga** kelish mumkin:

Birinchidan, tayanch maktablarda yo'lga qo'yilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlari pedagoglarning doimiy kasbiy o'sishi va o'z ustida ishlashiga xizmat qilayotgan samarali mexanizmga aylanmoqda. Bu tadbirlar o'qituvchilarga nafaqat yangi bilim va metodlarni o'zlashtirish, balki tajriba almashish, fikr almashish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llash imkonini bermoqda.

Ikkinchidan, "Kasbiy rivojlanish" tizimi doirasidagi faoliyatlar o'qituvchilar orasida doimiy o'rganish, yangiliklarga ochiqlik va kasbiy rivojlanishga intilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ta'lim sifatining izchil oshib borishiga zamin yaratmoqda.

Uchinchidan, "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini samarali tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, ochiq muloqot va hamkorlik muhitini shakllantirish orqali zamonaviy va sifatli ta'limga erishish mumkin.

Takliflar:

1. Toshkent shahri miqyosida sinovdan o'tkazilgan krk.onlinedu.uz platformasini bosqichma-bosqich barcha hududlarda joriy etish, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish;

2. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini muntazam monitoring qilish va tahlil etish tizimini yo'lga qo'yish;

3. Hududlar va fanlar kesimida ilg'or pedagogik tajribalarni tizimli almashish, tayanch maktablar faoliyatini innovatsion markazlar sifatida rivojlantirish;

4. Ishtirokchilarning — metodistlar, rahbar kadrlar va o'qituvchilarning — javobgarligi va mas'uliyatini oshirish, bu borada aniq mezonlar ishlab chiqish;

5. Pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish va ularni o'z ustida ishlashga motivatsiya beruvchi tizimlarni yaratish.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan takliflar tayanch maktablarda joriy etilgan kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-231-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 dekabrdagi 867-son qarori.
4. ECD (2020). TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. TALIS, OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/19cf08df-en>.
5. Guskey, T. R., & Yoon, K. S. (2009). What works in professional development. *Phi Delta Kappan*, 90(7), 495–500.
6. Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School*. New York, NY: Teachers College Press.
7. Yoon, K. S., Duncan, T., Lee, S. W., Scarloss, B., & Shapley, K. L. (2007). Reviewing the evidence on how teacher professional development affects student achievement. *Issues & Answers Report, REL 2007-No. 033*. Washington, DC: U.S. Department of Education, Institute of Education Sciences, National Center for Education Evaluation and Regional Assistance, Regional Educational Laboratory Southwest.